O‘QUVCHILAR MA’NAVIY KAMOLOTINI RIVOJLANTIRISHDA BUYUK AJDODLAR MEROSINING O‘RNI

Hodiyev Tolib Beshimovich
Buxoro viloyat Romitan tuman 1-son kasb-hunar maktabi YOBIBDO‘

Annotatsiya

Maqolda o‘quvchi yoshlar tarbiyasi va ularning ma’naviy kamoloti haqidagi fikr-mulohazalar tahlil qilingan bo‘lib, bu borada ulug‘ ajdodlarimizning bebaho asarlari, ular tomonidan ta’lim va tarbiyada ilgari surilgan pand-nasihatlar, hikmatlar va qarashlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sharq, ta’lim va tarbiya, insonparvarlik g‘oyasi, uyg‘onish, milliy meros.

Аннотация

В статье анализируются мнения о воспитании младших школьников и их духовной зрелости, и в связи с этим освещаются бесценные труды наших великих предков, советы, мудрость и взгляды, высказанные ими в воспитании и обучении.

Ключевые слова: Восток, воспитание и обучение, идея человечества, ренессанс, национальное достояние.

Annotation

The article analyzes opinions on the education of younger schoolchildren and their spiritual maturity, and in this regard, highlights the invaluable works of our great ancestors, advice, wisdom and views expressed by them in education and training.

Key words: East, upbringing and education, idea of humanity, renaissance, national heritage.

Farzandning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o‘z umri va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimizning asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida urg‘u berilgan. Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga ta’lim-tarbiya berish, uni ma’rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e’tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go‘zal axloqning inson kamolotiga sabab bo‘luvchi yuksak fazilat ekanini ta’kidlaganlar.

Insonparvarlik g‘oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta’lim-tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qo‘yilgan. Zero, insoniylik g‘oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalanganligi uchun ham Sharq uyg‘onish davri falsafasi va pedagogikasida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Axloq masalasi faylasuflarning, buyuk mutafakkirlarning, ham tarixchi-yu shoir va adiblarning ham birdek diqqat markazida bo‘ldi. Ta’limiy-axloqiy risolalar paydo bo‘lib, axloqning ham nazariy ham amaliy masalalari tahlil etilgan.

«Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Axloq haqida risola», «Ishq risolasi», «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Muhsiniy», «Hibatul-haqoyiq», «Guliston», «Bo‘ston», «Mahbub ul-qulub» kabi Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Davoniy, Koshifiy, Kaykovus, Sa’diy, Jomiy, Alisher Navoiylarning ta’limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etishda sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur ta’limiy-axloqiy asarlarda insonning ma’naviy kamolga yetishi yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g‘oya ilgari surildi. Ilmiy bilimga asoslanuvchi metod shakllandi, natijada aqliy tarbiya olimlar diqqat markazida bo‘lgan.

Xorazmiy, Forobiylar bu metodni asoslab berishgan buyuk mutafakkirlar edi. Bular bilan bir qatorda o‘sha davrda yaratilgan barcha ta’limiy-axloqiy risolalarda ham aqliy tarbiyada zehnni tarbiyalash, aqliy kamolot yo‘llari, bilimlarni asl mohiyatini yoritishga harakat qildilar. Lekin, biz shu paytgacha tayangan materialistik ta’limotga asosan olimlar yuksak axloq haqidagi g‘oyalarni islomning axloqiy dogmatikasiga qarshi ishlab chiqilgan, o‘z fikrini mantiqiy, izchil asosli ifodalashga asoslangan ratsionalistik ta’limot ham islom falsafasi – kalomning hissiy bilishni va aqliy bilishdan iborat ta’limotini – sehrli bilish haqidagi ta’limotiga qarshi shakllangan, deb ta’lim berganlar. Aslini olganda esa, Sharq uyg‘onish davrining ta’limiy-axloqiy qarashlarining asosi Islomning umuminsoniy va o‘ziga xos haq-huquqlariga, talab va tamoyillariga borib taqaladi. Zero, barcha mutafakkirlarimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi ham Qur’on va hadis ta’limotiga asoslanadi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o‘rgatish Qur’on va hadislarni o‘rgatish va ulardagi ko‘rsatmalarni o‘zlashtirish bilan birga olib borilgan. Shunga ko‘ra Qur’on va hadislardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga ta’sir etgan.

Hadislardagi umuminsoniy fazilatlarga alohida urg‘u berilgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlarning muhim xislatlari: halollik, poklik, saxovat, himmat, mehr-oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari va boshqalar o‘z ifodasini topgan va sharq adabiyotiga, jumladan ta’limiy-axloqiy asarlarga ta’sir etdi. Mutafakkirlarning o‘z ishlarida o‘qitish va ta’lim-tarbiyaga e’tibori natijasida, pedagogika va didaktika masalalariga orta bordi. Pedagogika sohasida inson va uni kamolga yetish bilan bog‘liq muammo asosiy o‘rinni egalladi. Mutafakkirlar ta’lim-tarbiyaga oid fikrlarida inson kamoloti muammosini baxt-saodatga erishish uchun shiroit yaratish, degan g‘oyani ilgari surish bilan bog‘lab talqin etdilar.

“Forobiy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy asarlarida oliy axloq, ma’rifatga, ma’naviy erkinlikka erishuv baxt-saodat, deb talqin etildi va bu baxt-saodat adolatli, zulmdan holi, ideal yetuk jamoa va ideal rahbar hokim bilan bog‘liq holda tasavvur etildi. Yetuk jamoa haqidagi insonlarning barchasini baxt-saodatga erishtiruvchi ideal tuzum haqidagi utopiya Sharq uyg‘onish davri ijtimoiy-etnik fikrni taraqqiyotining eng katta yutuqlaridan biri bo‘ldi”, - deydi forobiyshunos olim M.Xayrullaev.

Sharq uyg‘onish davri ta’limiy-didaktik asarlarida inson shaxsining kamol topish yo‘llari, usullari bayon etildi. Haqiqiy yuksak axloqli inson xislatlari haqida fikr yuritilganda birinchi o‘rinda adolatparvarlik g‘oyasi yotadi. Masalan, adolatli hukmdor haqida so‘z yuritilar ekan, agar hukmdor adolatli bo‘lsa, uning qo‘l ostidagi fuqarolar ham baxt-saodatli hayot kechiradi, deyiladi.

Bundan tashqari, insonni kamolotga yetkazuvchi axloqiy xislatlar sifatida do‘stlik, sadoqat va vafo, sevgi va muhabbat, vatanparvarlik, samimiylik, saxovat, muruvvat, erkinlik, irodalilik, jasurlik kabilar ilgari suriladi. Salbiy xislatlar sifatida rashk, riyokorlik, xudbinlik, ochko‘zlik, hirs, sotqinlik kabilar qoralanadi. Shuningdek, Sharq uyg‘onish davrida sof pedagogik asarlar yaratib, ta’lim va tarbiyada inson yetukligining xususiy va umumiy yo‘llari haqida o‘lmas ta’limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga keldi.

Darhaqiqat, ajdodlarimiz yoshlar ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Ularning ta’kidlashicha, yoshlikda olingan bilim kelajak uchun qo‘yilgan tamal toshidir.

Abu Nasr Forobiy yoshlar ta’lim-tarbiyasi to‘g‘risida fikr bildirar ekag, u ikki narsani inson aqliga xosligini ajratgan:

1) Tabiatdan olingan tabiiy jumboqlar.

2) Ta’lim-tarbiya natijasida erishilgan iroda va istakka mos intilish.

Allomaning qayd etishicha, tabiiy qobiliyat bilan birgalikda yoshlarda ta’lim-tarbiyaning ham ahamiyati beqiyos ekan. Bu esa isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Bu sohada ibn Sinoning pedagogik merosi tahsinga sazovor. Uning ta’kidlashicha, yoshlar ta’lim-tarbiyasi tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) Aqliy tarbiya.

2) Estetik tarbiya.
3) Jismoniy tarbiya.
4. Axloqiy tarbiya.
5. Hunar o‘rgatish.

Yuqoridagi tarbiya turlarini yoshlar ongiga singdirishda o‘qituvchi, tarbiyachi bilan bir qatorda, oilada ota-onalarning ham o‘rni muhim hisoblanadi.

Ibn Sino qoldirgan ushbu tarbiyaviy meros bugungi kunda yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol bo‘lib shakllanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk mutafakkirlardan biri, Abu Rayhon Beruniyning ta’kidlashicha, ta’lim jarayonida shaxsiy namuna, shaxsiy o‘rnak hamda ko‘rsatmalilik (ko‘rgazmalilik) muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonidagi bunday xususiyatlar yoshlarning kuzatish qobiliyatini rivojlantiradi, tasavvuri va tafakkurini kengaytiradi.

Ibn Sinoning yoshlar tarbiyasiga oid fikrlariga qo‘shimcha tarzda Beruniy yoshlarda mehnatsevarlikni tarbiyalash zarurligini alohida ta’kidlagan.

Beruniy o‘z asarlarida yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish lozimligini uqtirgan. Jumladan:

ta’limning ongliligi;
ko‘rgazmalilik;
tizimlilik;
izchillik;
dalillarga asoslanganlik;
nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi.

O‘rta asrlarda Alisher Navoiy yoshlar ta’lim-tarbiyasida til o‘rganishning muhimligini ta’kidlab o‘tgan. U o‘z asarlarida tilning ulug‘ligi, tilning millat gavhari ekanligini singdirgan.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho didaktik meros yoshlar ta’lim-tarbiyasida muhim hisoblanadi. Bugungi kunda ular tomonidan yaratilgan ta’lim-tarbiya usullarini xorijiy ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish va ta’lim jarayonida unumli foydalanish ta’lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Demak, biz Sharq uyg‘onish ta’lim-tarbiya muammolarini tahlil etar ekanmiz, uni ikki yo‘nalishda - qomusiy olimlar ijodiy merosida ta’lim-tarbiya muammosi va sof ta’limiy-axloqiy asarlarda komil insonni tarbiyalash muammolarining hal etilishi orqali ifodalanganini ko‘ramiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz // Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
2. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. –Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 400 b.